



## HIKOYALARDA RUHIYAT TASVIRI (MUSTAQILLIK DAVRI YOSH NOSIRLARI IJODIDAN: JAVLON JOVLIYEV HIKOYALARI MISOLIDA)

**Ruxsora To'laboeva,**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti*

**Annotasiya:** Maqola hikoyalarda ruhiyat tasvirini yoritishga bag'ishlangan. Ob'ekt sifatida mustaqillik davri yosh nosirlaridan Javlon Jovliyev hikoyalari tanlangan. Ushbu hikoyalarda qahramonlar ruhiyati, obrazlar ichki olami, ichki kechinmalar singari jihatlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy psixologizm, obraz, tasvir, ruhiyat, qahramon, ichki olam, ifoda, tahlil.

**Аннотация:** Статья посвящена освещению образа психики в рассказах. В качестве объекта были выбраны рассказы Джавлона Жовлиева, одного из молодых писателей периода независимости. В этих рассказах анализируются такие аспекты, как психика героев, внутренний мир героев, внутренние переживания.

**Ключевые слова:** художественная психология, характер, образ, психика, герой, внутренний мир, выражение, анализ.

**Annotation:** The article is devoted to the illumination of the image of the psyche in stories. The stories of Javlon Jovliyev, one of the young writers of the period of independence, were chosen as the object. In these stories, such aspects as the psyche of the heroes, the inner world of the characters, and the inner experiences are analyzed.

**Key words:** artistic psychology, image, image, psyche, hero, inner world, expression, analysis

Badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning his-tuyg'u va kechinmalarini ifodalash bosh omillardan biridir. Shunday ekan, inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan, muhim masala bo'lib qolaveradi. Adabiyotshunoslikda inson ruhiyati ifodasi badiiy psixologizm deyiladi va psixologizm qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e'tibor berish kabi masalalar birlamchi o'rinda turadi.

“Psixologizm klassik adabiyotning uzoq yillik tarixiy hayoti sirlaridan biri yashirin: inson qalbi haqida gapirar ekan, u har bir kitobxon bilan uning aynan o'zi haqida gaplashadi”.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – С.176.





Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm masalasini tadqiq etgan I.V.Straxov, S.G.Bocharov, A.N.Iezuitov, L.Ya.Ginzburg, V.V.Kompaneets, M.B.Xrapchenko, A.B.Yesin, A.V.Kareolskiy, L.Kolobaeva, Ye.G.Etkind, D.Xalizev, H.Umurov kabi olimlar “psixologizm” terminini turlicha tadqiq etishgan. “Badiiy psixologizm” tushunchasi bilan bir qatorda “psixologik tahlil”, “psixologik tasvir”, “qalb dialektikasi” kabi terminlar ham keng qo‘llanilib kelingan.

“Yozuvchi o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy mavqeida mustahkam tursa, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga o‘z xalqining ilg‘or farzandi nuqtai nazaridan qarasa va kelajakka nazar sola bilsa, uning asarida ifodalangan milliy tuyg‘ular umumbashariylik tusini oladi”.<sup>2</sup>

Istiqlol davri ijodkorlari inson ruhiyati tasviriga yanada ko‘proq e‘tibor qaratdilar. Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Xurshid Do‘stmuhammad, Erkin A‘zam kabi o‘zbek adiblari ijodida inson xarakterining murakkab uslubdagi tasvirini kuzatamiz. Ularda qahramonlar tasviri tashqi real olamda harakatlansa-da, o‘y-hayollari, kechinmalari, quvonch-u qayg‘ulari, umuman, o‘ziga xos ruhiy tasviri birlamchi o‘rinda turadi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti yaqin 10 yillar oralig‘ida yosh ijodkorlar qalamiga mansub asarlar bilan yangi manzara kasb etganini ta‘kidlash, bizningcha, o‘rinli. Nurilla Choriev, Xoliyor Safarov, Sanjar Tursunov, Jasur Kengboev, Javlon Jovliev, Nodira Ibrohimova kabi yosh ijodkorlarning hikoyalari paydo bo‘ldiki, ularda mutlaq yangi zamon, yangi davr ruhi aks etdi.

Javlon Jovliev mustaqillik davri yosh nosirlari qatorida ijod qilib, o‘z tengdoshlari orasida birinchilardan bo‘lib, roman janriga qo‘l urgan adib hisoblandi. Uning “Qo‘rqma” romani katta audotiryaga ega bo‘lgan yoshlar romanlaridan biri bo‘ldi. Jalon Jovliev nafaqat roman, balki hikoyachilikda ham bir qadar muvaffaqiyat qozonib, ushbu janrning ham imkoniyatlaridan keng foydalandi. Uning “Stalinga maktublar”, “Mustabidning hasharotlari”, “Ayol” kabi hikoyalari vaqtli matbuot sahifalarida e‘lon qilingan, 2022 yilda “Onam va koinot” nomli to‘plami nashr etilib, unda ko‘plab hikoyalar jamlandi. Javlon Jovliev hikoyalarda ham qahramonlar ruhiyati, ruhiy tavsir, obrazlar ichki dunyosi o‘zining teran ifodasini topgan. Ayniqsa “Elbek”, “Ko‘k, oq va ola kabutarlar”, “Elbek” hikoyalarda ayol ruhiyati, o‘zbek onasining ruhiy qiyofasi nihoyatda ta‘sirli berilgan. Ushbu hikoyalarning har birida o‘zgacha syujet

<sup>2</sup> Foiybov H. Санъат тараққийтининг баъзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат. 1970, 108-6.





tanlangan bo'lsa-da, ammo qalamga olingan ruhiyat tasviri, ayol ruhiyatining fojeyaviy qiyofasi sabab mushtaraklik kasb etadi.

“Elbek” hikoyasini yozar ekan, adib yaqin tarixdagi xalqimizning sho‘r peshonasi, paxta dalalarida tugab bitgan ayol-qizlarning go‘zalligi-yu, yoshligi, bolalarning paxtaga almashilgan ilmi-yu, yuksalishlari, bularning barchasi hikoyada aks ettirilgan. Paxta frontida farzandidan ayrilgan onaning cheksiz iztirobi, umrbod bitmaydigan yarasi hikoyada Elbekning onasi obrazida gavdalantirilgan: “ – Hoy Elbek ... Ko‘ksimda “Qahramon ona” ordeni bor, menam qahramon bo‘ldimmi, bolam... Paxtani oltin deb, minbarni zamon deb seni qaqshatdimmi bolam... ko‘ksimdagi bu ordenni to‘yingda eshakka taqa qilay, eshakka taqa bo‘lmasa, lo‘liga sovg‘a qilay...”<sup>3</sup>. Hikoyada enaning katta o‘g‘li Tesha obrazi bo‘lib, uning nutqi orqali onaning 10 ta bola tuqqani, Elbek kenja farzandi ekani, paxta dalasida o‘lib qolgani, lekin, qahramon ona bitti bolaga aza tutib o‘tirmasligi kerakligi kabi nihoyatda ta’sirli haqiqatlar ochib berilgan. Asardagi ona obrazi ruhiyatidagi g‘am-qayg‘u, iztirob hatti-harakatlari, gap-so‘zlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu adabiyotshunoslikda psixologizmning dinamik printsipiga to‘g‘ri keladi. “Dinamik printsip – romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda ko‘rinishini tasvirlash. Hissiyotning dinamik ravishda, (bosqichma-bosqich) rivojlanib borishi. Rivojlangan sayin qahramon qalbi o‘zining borlig‘ini namoyon etadi”<sup>4</sup>.

Psixologizmning har qanday printsip yoki qonuniyatlariga to‘g‘ri kelmasin, avvalo, yozuvchining mahorati badiiy asar kuchini baholaydi. Aks holda ruhiy tasvirning bir necha printsiplaridan foylangan holda ham no‘noq asar paydo bo‘lishi adabiyotshunoslarga sir emas.

Mustaqillik davri yosh nosirlari avlodining vakillari hisoblanmish Nurilla Chori, Xoliyor Safarov, Javlon Jovlivlarning hikoyalarida inson ruhiyati, uning iztiroblari, ruhiy kechinmalari teran tasvirlangan. Qahramonlar ruhiyati, obrazlar ifodasi, mustaqillik davri kishisi nuqtai nazaridan qarab bitilgani bois bugungi kun

<sup>3</sup> Жовлиев Ж. “Онам ва коинот. Ҳикоялар. – Тошкент. “Апорbooks”, 2022. – 145-б.

<sup>4</sup> Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, Халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.50-52.





kitobxonining estetik ideali va ruhiy olamiga mos keldi. Biz mustaqillik davri yosh ijodkorlaridan hamisha baland asarlar kutib qolamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жовлиев Ж. “Онам ва коинот. Ҳикоялар. – Тошкент. “Anorbooks”, 2022. – 145-б.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – С.176.
3. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, Халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.50-52.
4. Ғойибов Н. Санъат тараққиётининг баъзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат. 1970, 108-б.

